

20-Avgust, 2026-yil

GENDER STEREOTIPLARNING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Baratova Fotima Shavkat qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender stereotiplarning yoshlar dunyoqarashi, ijtimoiy qarashlari va xulq-atvoriga ta’siri tahlil qilinadi. Gender stereotiplarining oila, ta’lim muhiti, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashi, ta’lim olish imkoniyatlari, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy faolligiga stereotiplarning ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolada yoshlar ongida tenglik, hurmat, bag‘rikenglik va gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik hamda ijtimoiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: gender stereotiplari, yoshlar, dunyoqarash, gender tengligi, ijtimoiy ong, gender madaniyati, tarbiya, ta’lim, ijtimoiylashuv, shaxs rivojlanishi

Аннотация: В статье анализируется влияние гендерных стереотипов на мировоззрение, социальные взгляды и поведение молодежи. Рассматриваются особенности формирования гендерных стереотипов под влиянием семьи, образовательной среды, средств массовой информации и социальных сетей. Особое внимание уделяется влиянию стереотипов на выбор профессии, образовательные возможности, личностное развитие и социальную активность молодежи. Обосновывается важность формирования у молодых людей культуры равенства, уважения, толерантности и гендерной культуры.

Ключевые слова: гендерные стереотипы, молодежь, мировоззрение, гендерное равенство, социальное сознание, гендерная культура, воспитание, образование, социализация, личностное развитие.

Abstract: This article analyzes the influence of gender stereotypes on the worldview, social attitudes, and behavior of young people. It examines the formation of gender stereotypes under the influence of family, educational environment, mass media, and social networks. Particular attention is paid to the impact of stereotypes on career choices, educational opportunities, personal development, and social participation of youth. The article also emphasizes the pedagogical and social importance of developing a culture of equality, respect, tolerance, and gender awareness among young people.

Keywords: gender stereotypes, youth, worldview, gender equality, social consciousness, gender culture, education, upbringing, socialization, personal development.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni nafaqat mukammal qonunchilik tizimini yaratishni, balki ushbu qonunlarni anglaydigan, ularga ongli ravishda rioya qiladigan, o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi biladigan hamda jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladigan faol fuqarolarni tarbiyalashni ham talab etadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat shaxsning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilovchi muhim omillardan bo‘lib, ularni shakllantirish jarayoni faqat huquqiy bilim berish bilan cheklanmasligi lozim, qonun normalarini bilishning o‘zi insonning doimo qonuniy xatti-harakat qilishini kafolatlamaydi. Buning uchun huquqiy bilimlar shaxsning ma’naviy-axloqiy qarashlari, qadriyatlarini, Gender stereotiplar deganda “erkak” va “ayollar”ga xos degan tushunchaga mos keluvchi

xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlarini o‘g‘risidagi andozalashtirilgan tasavvurlar tushuniladi, gender stereotiplari oilaviy professional va boshqa sohalarda muayyan ijtimoiy rollarni mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lib, ayollarga odatda asosiy vazifa sifatida oilaviy rollar- ona, uy bekasi, turmush o‘rtog‘i kabi erkaklarga esa – professional rollar belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda erkaklarda aksariyat hollarda o‘z kasb-koriga erishgan yutuqlariga qarab ayollarga esa-oilasi va bolalari mavjudligiga qarab baho berishadi. Afsuski, bizning jamiyatimizda ham ayollar va erkaklarga nisbatan aynan shu qarash insonlar ongida mahkam o‘rin olgan. Stereotip o‘zi nima-mavjud guruh shaxs yoki narsa haqida avvaldan shakllangan haddan tashqari soddalashtirilgan bir qolipga solingan va o‘zgarmas qarash demakdir. Ya’ni erkak kishiga nisbatan oila boquvchisi, qat’iyatli, hislarini ochiq ifoda etmaydigan, yaqinlarini himoya qiluvchi, mayda ishlarga aralashmaydigan inson sifatida qaraladi. Ayollarga esa-oni, uy bekasi, mehribon, farzandini ulg‘aytirishda asosiy vazifachi, vaholangki bu vazifalar uzluksiz bir odam tomonidan bajarilavergach bezdiradi, qaysidir ma’noda ayol ham erkak ham bir-biriga yordam berib hamjihat bo‘lib ishlashi kerak. Gender stereotiplari (erkaklar va ayollar haqidagi qolipga tushgan tasavvurlar) yoshlar dunyoqarashi, maqsadlari va ruhiyatiga juda chuqur ta’sir qiladi. Bu ta’sir o‘z navbatida yoshlarning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishini cheklaydi. Erkaklar va ayollar kasblari “Texnika, IT va muhandislik sohalari “yigitlar uchun”, pedagogika, tibbiyot va xizmat ko‘rsatish esa “qizlar uchun” degan qarsh yoshlarning qiziqishlarini bo‘g‘adi. Qizlarda ko‘pincha “baribir turmushga chiqaman, oilamni baribir turmush o‘rtog‘im boqadi” degan fikr shakllanib karyera qilish motivatsiyasi pasayadi, yana qizlar orasida yetakchilik va boshqaruv rollariga intilish erkaklarga nisbatan pastroq bo‘ladi, negaki jamiyat rahbarlik vazifasini erkaklargagina xos deb biladi, yigitlarga bolalikdan hissiyotlarini ko‘rsatish ta’qiqlanadi. Bu ularning stress, depressiya va ichki og‘riqlarni yasgirishiga olib keladi. Natijada yosh yigitlar orasida tajovuzkorlik yoki zararli odatlarga berilish holatlari ko‘payadi, qizlardan doimo bo‘ysuvchan, muloyim va chiroyli bo‘lish talab etiladi. Bu ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchning

pasayishi va doimiy xavotirni uyg‘otadi. Oila va ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarga kelganda yigitlar yoshligidanoq “oila boquvchisi” degan ulkan moddiy bosim ostida qoladi va bu ularni erta yoshda og‘ir mehnat qilishga yoki katta stress ostida yashashiga majbur qiladi, uy-ro‘zg‘or ishlarini va bola parvarishi faqat ayolning vazifasi deb qaralishi yosh qizlarning shaxsiy rivojlanishiga vaqt qoldirmaydi, yuqorida nazarda tutilgan gender stereotiplar yoshlar o‘rtasida sog‘lom, do‘stona va teng huquqli munosabatlar o‘rnatilishiga xalaqit beradi, qarama-qarshi jins vakiliga shaxs emas, balki shunchaki “ijtimoiy r ‘ sifatida qaraladi. “Erkak kishi jahldor bo‘ladi” yoki “Ayol kishi chidashi kerak” degan stereotiplar yoshlar orasida oilaviy zo‘ravonlik va tazyiqlarni normal holat deb qabul qilishiga zamin yaratadi. Shu sababli ruhiy salomatlik bu mavzuning eng muhim tomonlaridan biridir. WHO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 10-19 yoshdagilarning har yetti nafaridan biri ruhiy buzilishlarni boshdan kechiradi depressiya, xavotir va xulq-atvor buzilishlari o‘smirlar orasida ko‘p uchraydigan muammolar qatoriga kiradi. WHO shuningdek, o‘smir ruhiy salomatligiga e‘tibor bermaslik oqibatlari kattalik davriga ham o‘tib, imkoniyatlarni cheklashi mumkinligini qayd etadi. Gender stereotiplari aynan mana shu ruhiy salomatlikka xavf omillaridan biri bo‘lishi mumkin. Chunki ular insonning tabiiy hissiyotlarini bostirishga, o‘ziga mos bo‘lmagan rolni o‘ynashga, doimiy ijtimoiy baholanish ostida yashashga majbur qiladi. Bu esa psixologik zo‘riqish, ichki bosim va uzoq muddatli emotsional charchoqni keltirib chiqarishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, gender stereotiplari muammosi faqat ijtimoiy tenglik masalasi emas, balki ruhiy farovonlik va sog‘lom shaxs rivojlanishi masalasi hamdir. Sog‘lom gender ijtimoiylashuvi deganda yoshga tayyor qoliplarni zo‘rlab singdirish emas, balki uning shaxsiy qobiliyati, qiziqishlari, intilisharini, emotsional olami va hayotiy intilishlarini hurmat qilgan holda rivojlantirish tushuniladi. Bunda o‘g‘il bolaga ham his-tuyg‘ularni ochiq ifodalash, g‘amxo‘rish bo‘lish va yumshoqlik ko‘rsatish mumkinligi o‘rgatiladi. Qiz bolaga esa faollik, liderlik, mustaqillik va katta maqsadlar qo‘yish tabiiy ekanligi singdiriladi. UNISEF gender tengligini aynan shunday tushuntiriladi: qizlar va o‘g‘il bolalar o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi, huquq va imkoniyatlardan teng foydalanishi, stereotip va prejuditsiyalarning cheklovlarsiz rivojlanishi kerak. Bunday yondashuv yoshlar orasida o‘zaro hurmat, empatiya konstruktiv muloqot va psixologik barqarorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, kasb tanlash, shaxsiy hayot qurish va jamiyatdagi faol ishtirok imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Birinchidan, oilada genderga oid tarbiya biryoqlama buyruq va ta‘qiqar asosida emas, o‘zaro hurmat va tushuntirish asosida olib borilishi kerak. Farzandga “sen shunday bo‘lishga majbursan” deyilmasdan, “o‘zingni anglash, boshqalarni hurmat qilish va mas‘uliyatli bo‘lish muhim” degan yondashuv berilishi foydaliroq.

Ikkinchidan, maktab va oliy ta‘limda gender sezgir tarbiya elementlarini kuchaytirish zarur. Bu darsliklardagi obrazlardan tortib, o‘qituvchilarning rag‘batlantirish usullarigacha bo‘lgan barcha jarayonlarda aks etishi kerak.

20-Avgust, 2026-yil

Uchinchidan, yoshlarning media savodxonligini oshirish lozim. Ular ijtimoiy tarmoqdagi obrazlar ko‘pincha sun‘iy, tanlab ko‘rsatilgan va real hayotni to‘liq ifodalanmaydigan tasvir ekanini anglab yetishi kerak.

To‘rtinchidan, psixologlar, murabbiylar va sinf rahbarlari gender stereotiplari, emotsional savodxonlik va sog‘lom muloqot bo‘yicha trening maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda gender rollarni shakllanishi murakkab hodisa shuning uchun ham ushbu jarayon uzoq vaqt davom etadi. Bu jarayon biologik jinsning o‘zidan ko‘ra ko‘proq oila, ta‘lim, tengdoshlar, media va madaniy muhit orqali shakllanadi. Gender stereotiplari esa ushbu jarayonni qat‘iy qoliplarga solib, shaxsning o‘zini anglashi, qobiliyatlarini namoyon qilishi, kasbiy yo‘nalishi va ruhiy farovonligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham yoshlar bilan ishlashda gender masalasiga yuzaki qarash yetarli emas. Sog‘lom gender ijtimoiylashuvi shaxsning o‘ziga xosligini hurmat qilish, stereotiplarni kamaytirish, emotsional erkinlikni qo‘llab-quvvatlash va teng imkoniyatlarni ta‘minlash bilan bog‘liq, shundagina yoshlar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qila oladigan, ruhiy jihatdan barqaror va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
5. Huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar. – Toshkent: huquqiy va ijtimoiy fanlarga oid ilmiy nashrlar.